

BO'LAJAK LOGOPEDLARNI METODIK KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Bozorov Otabek Yo'lchi o'g'li

Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Tel: (99) 864-09-68

E-mail: bozorovo@inbox.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7483980>

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogika oliy o'quv yurtlarida bo'lajak logopedlarning metodik kompetentligini shakllantirishning ahamiyati va uni shakllantiruvchi omillar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: kompetentlik, metodik kompetentlik, oliy ta'lim, pedagogik shart- sharoit, insonparvarlik.

Zamonaviy ta'limni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot ishlarida insonning yashirin qobiliyatlarini aniqlash va ta'lim jarayonida uni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda, ayniqsa, o'qituvchining shaxsiy – kasbiy fazilatlari katta ahamiyat kasb etadi, chunki insonparvarlik tamoyillari bilan yo'g'rilgan o'qituvchi o'quvchiga nafaqat bilim beradi, balki uni shaxs sifatida shakllanishiga ham zamin yaratadi. Rivojlanishida turli kamchiliklari bor bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi shaxs maxsus pedagog bo'lib, ularni tayyorlashda nafaqat o'quvchilarni shaxs sifatida shakllantira olishlarini balki, ularda mavjud kamchiliklarni ta'lim jarayonida bartaraf eta olish ko'nikmalarini ham hisobga olish lozim. Kasbiy faoliyat doirasining kengligi maxsus pedagog ishining yana bir tomonini ko'rsatish imkonini beradi: o'qituvchi ta'lim beradigan bolalarda buzilish mexanizmining xilma-xilligi unda ma'lum bir qolipda faoliyat yuritish imkonini bermaydi, bu esa har bir bola rivojlanishining o'ziga xosligi bilan, har bir bolaga individual yondashish zarurligi bilan bog'liq.

Maxsus pedagoglar ishining murakkabligi va ko'p yondashuvligi(tibbiy, pedagogik, psixologik) mutaxassisning lavozim majburiyatlarini ham oshiradi hamda uning malaka talablariga quyidagicha o'ziga xos tus beradi:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni saralash, tashxislash, olib boriladigan korreksion ishlarni rejalashtirish va tashkil etish;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni hayotga, jamiyatga moslashishiga ko'maklashish;
- ota-onalar(vasiylar) va ta'lim ishtirokchilari bilan maslahat va hamkorlik ishlari tashkil etish;
- alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lish, maxsus pedagogik bilimlarni targ'ibotini amalga oshirish hamda boshqalar aks ettiriladi.

Tor doiradagi mutaxassis-maxsus pedagoglardan biri bu logoped bo'lib, u

bevosita nutq kamchiliklariga ega bo'lgan bolalardagi nuqsonlarni tuzatish, bartaraf etish, bilinmaydigan darajaga keltirish bilan shug'ullanadi. Y.V.Koltakova, I.M.Yakovlevalarning tadqiqot ishlarida maxsus pedagog - logopedning kasbiy xususiyatlari kompetentlik nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Y.V.Koltakova logopedning malaka talabida uning o'ziga xos kasbiy, psixologik va shaxsiy hususiyatlari, shuningdek, maxsus kompetensiyalarini ham ajratib ko'rsatadi, hamda "kasbiy faoliyat bilan bevosita bog'liq bo'lgan orttirilgan kompetensiyalarga tashxis qo'yish, prognostik, korreksion pedagogik va maslahat berish kompetensiyalari kiradi"[4] deya ta'kidlaydi. Muallif logopedning kompetentligi tarkibida "nutq kamchiliklariga ega bolalarni o'qitish va tarbiyalash usuli va metodlarini egallash va bilish" sifatida belgilanadigan metodik kompetentlikni ajratadi[5]. "Logopedning metodik faoliyati faoliyatning barcha turlarida zarur bo'lgan komponent hisoblanadi va mazkur faoliyat quyidagi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi: aniq maqsadga qaratilganlik, loyihalash, rejalash, amalga oshirish, o'quv jarayonini diagnostikasi, o'qitish natijalarini ongli to'g'rilab turish"[5]. Logopedik ishning turli shakllarida u quyidagilarda: "korreksion-logopedik faoliyat doirasida individual dasturlarni yaratish, bolaning yoshi va patogenezni hisobga olgan holda metod va tamoyillarni belgilash; didaktik faoliyat doirasida o'rgatish metodlariga ega bo'lish va tarbiyaviy faoliyat doirasida ishonch, xulq-atvorni shakllantirish sifatida tarbiyalash metodlariga ega bo'lish; ijtimoiy-pedagogik faoliyat doirasida masalalarni qo'yish, insonning shaxsiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish shakllari, metod va usullarini aniqlash; tashkiliy faoliyatda optimal (yeng qulay) korreksion-rivojlantiruvchi sharoitni yaratish texnologiyalarini o'rganishda namoyon bo'ladi"[5]. Bu holda metodika deyilganda, nazariy va amaliy masalalarni yechish uchun qo'llanadigan aniq metodik usullar tizimi; muayyan ishni maqsadga muvofiq olib borish usullari va vositalari majmui nazarda tutiladi. Umuman olganda korreksion-logopedik ish jarayonini tashkil etishning murakkabligi shundaki, ish tamoyillari va usullari hamda vositalari har ikki maqsadni amalga oshirishga xizmat qilishi kerak: ham ta'limiy, ham korreksion. Bu esa ulardan yuqori darajada shakllangan metodik kompetentlikni talab etadi. A.V.Adolfning ta'kidlashicha "bo'lajak o'qituvchi metodik kompetentligini shakllantirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi: ta'limning ma'lum psixologik-pedagogik konsepsiyalarini hisobga olib, turli fanlarni o'qitish metodikalarining nazariy asoslarini qayta ko'rib chiqish, bu metodik bilimlardagi rasmiyatchilikdan qochish imkonini beradi, ularning asosiy darajasini oshiradi; barcha psixologik, pedagogik, fanga oid va metodik bilimlarning tizimiyligini ta'minlash; talabalarni amaliy tayyorlashni qayta ko'rib

chiqish-nafaqat amaliyot shakllarini, balki ularning har xil turlarini joriy etish shakllarini o'zgartirish; psixologik - pedagogik fanlarga metodik yo'nalganlikni kiritish, bo'lajak o'qituvchini maxsus tayyorlashni metodik tayyorlash bilan qo'shilgan maxsus kurslarni o'qish; ko'pyondashuvlik tamoyilini joriy qilish-talabalarni turli metodik tizimlar bilan, xatto alternativ tizimlar bilan tanishtirish. U bo'lajak o'qituvchilarga munozara davomida u yoki bu metodlarga bo'lgan o'z munosabatini aniqlash, ularni qabul qilish yoki qabul qilmaslik imkonini beradi"[3].

O'rganilgan manbaalardan kelib chiqib, bo'lajak logopedlarning metodik kompetentligini ta'lim jarayonida shakllantirish uchun maxsus pedagogik muhit va sharoit hosil qilinishi lozim deb hisoblashimiz mumkin. Talabalarga bunday muhit va sharoitning yaratilishi ularda metodik kompetentlikni shakllanish darajasini oshishiga olib keladi. Quyida shunday sharoit va muhit qanday tashkillanishi berilgan. Bunda:

- pedagogika oliygohlarida o'quv jarayonining insonparvarlik tamoyili asosida tashkil etilishi;
- o'qitishda metodik kompetentlikning komponentlarini rivojlantiruvchi vositalarning qo'llanilishi;
- shaffof va ijobiy ta'lim muxiti;
- talabalar va professor o'qituvchilarning o'zaro ijodiy aloqasiga zamin yaratuvchi muhitning mavjudligi.

Ushbu pedagogik shart-sharoitlarning mavjudligi talabaning o'z mutaxassisligi ongli ravishda o'zlashtirishiga yordam beradi.

Bo'lajak logopedning metodik kompetentligi tahlili va o'ziga xosligi, shuningdek, uni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari biz o'rganayotgan jarayonning qator omillariga bog'liqligi haqida xulosa chiqarish uchun asos bo'lishiga xizmat qiladi.

Omillar bu umumiy ko'rinishdagi bir necha sabablarning yig'indisi hisoblanadi. Omillar, odatda, bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'ladi, bir tizim ichida yashaydi, ular jarayon bilan bevosita bog'liq bo'ladi va maqsadga qaratilgan harakatlarning ro'yobga chiqishiga yordam beradi.

Logopediya yo'nalishi talabalarining metodik kompetentligining shakllanishi quyidagi omillarga asoslanadi:

- bo'lajak logopedlarning ta'lim jarayonida metodik ishga motivatsion jixatdan hozirligi;
- o'quv mashg'ulotlarida bo'lajak logopedlar tomonidan ijodiy faollikning namoyon bo'lishi;
- bo'lajak logopedlarning insonparvar yo'nalganligi;

- bo'lajak logopedlarning metodik faoliyatning subyekti sifatida ishtirok etish imkoniyati bilan bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, biz logopedning metodik kompetentligi uning kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi ekanligi va uni yetarli darajada shakllantirish logoped mutaxassislarni shaxsiy-kasbiy sifatlarini shakllantirishda muhim ko'rsatkich ekanligini ta'kidlashimiz mumkin.

References:

1. Ayupova M. Y. Logopediya. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi //T.: Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. – 2019.
2. Bozorov, O. (2022, April). Possibilities of forming the methodical competence of future teachers-speakers on the basis of interdiscipline integrative approach. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 1-5).
3. Адольф А.В. профессиональная компетентность учителя: монография. – Красноярск,1998.
4. Колтакова, Е. В. Проектирование содержания повышения квалификации учителей-логопедов на основе профессиографического подхода[Текст]: автореф. дис. ... канд. пед. наук. - М., 2009. - 23б.
5. Яковлева, И. М. Формирование профессиональной компетентности учителя-олигофренопедагога [Текст] : монография / И. М. Яковлева. - М.:Спутник, 2009. - 220 б.